

## XAYRIDDIN SULTONOVNING “YALDO KECHASI” ROMANIDA MUALLIF MAHORATI

**Uktamova Shohinaxon Dilmurodjon qizi**  
**FarDU magistranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20305072>

Xayriddin Sultonov 1956-yilda Toshkent viloyati Qibray tumani Tuzel qishlog'ida tug'ilgan. 1978-yilda ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan. Talabalik yillaridan to bugungi kunga qadar adabiyotning turli sohalarida qalam tebratib kelmoqda. 2025-yil yakunida nashr etilgan va kitobxonlarga taqdim etilgan “Yaldo kechasi” romani muallif badiiy tafakkurining namunasi hisoblanadi. Asar Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asariga ilova tarzida, go'yo mantiqiy davomi sifatida yoziladi. Ma'lumki, bir asar yaratilar ekan, shunga mos jamiyat talabi ham mavjud bo'ladi. “Yaldo kechasi” romani ham aynan bugungi siyosat va islohotlarning yorqin namunasi sifatida, ochiqlik va erkinlik siyosatining amaliy hosilasi sifatida dunyoga keladi. Asaarda XIX asr oxiri Turkiston hayoti, ijtimoiy muammolar va insoniy munsabatlar tasvirlanadi. Voqealar Otabekning o'g'li Yodgorbek va uning o'gillari– Ozodbek va Odilbek obrazlari atrofida rivojlanadi. Asar tili “O'tkan kunlar”ga o'xshash va atayin muallif tomonidan Qodiriy uslubiga yaqinlashtirilgan. Atoqli adib va adabiyotshunos hamda mazkur asarning mas'ul muharriri Ibrohim G'ofurov “zamonaviy o'zbek adabiyotida tamomila kashfiyot desa arzigulikdir” deya yuqori baho berishi romanning badiiy qimmatini yana-da oshiradi. Asar yozish jarayonida muallif tomonidan ko'plab arxiv hujjatlari va o'sha davr tarixiga oid manbalarni sinchkovlik bilan batafsil o'rganilganligi yaqqol seziladi. Obrazlar galereyasida bir-birini takrorlamaydigan, aksincha muallif badiiy g'oyasini yaxlit tasvirlashga harakat qilgan personajlarni uchratish mumkin. Xususan, “O'tkan kunlar” da qalamga olingan yurt qayg'usi, vatan ozodligi masalalari Yusufbek hoji va Otabek obrazlarida yorqin namoyon bo'lsa, “Yaldo kechasi”da bu kabi mavzular Yodgor Otabek o'g'li, uning o'g'illari Ozodbek va Odilbek hamda Nusrat to'ra obrazlari vositasida yoritiladi. Bu o'rinda muallifning o'zi ham ta'kidlaganidek, “matnning asosiy qismi jadid va qadimchilarning ilmiy, badiiy va publitsistik asarlari, bahs-munozaralari...” dan olingan. Yodgor obrazi bir qarashda Fitrat va Behbudiyini, Nusrat to'ra obrazi esa Is'hoqxonto'ra Ibratni eslatadi. Jumladan, Yodgor Fitrat kabi o'ziga to'q oilada voyaga yetgan, yetarlicha boyliklari bo'lsa-da, to'kin hayotni emas, balki mashaqqatlarga to'la g'oyat murakkab, ziddiyatli va qiyinchilikdagi, ammo ma'rifatga to'la hayotni tanlaydi. Turli mamlakatlarga borib ilm-hunar o'rganib, kuchli ustozlardan ta'lim olishi xuddi Fitratning hayot yo'lini yodga soladi. Shuningdek, bosmaxonalarda tanqidiy maqolalar bilan bahsga kirishuv holatlari va uning nutqida ifodalangan fikrlar Behbudiyning publitsistik maqolalari bilan mos keladi. Nusratxonto'ra obrazi esa Is'hoqxon Ibrat kabi ma'rifatparvar jadidimizni yodga soladi. Ayniqsa, Ibratning Namanganda tug'ilganligi, juda ko'p tillarni mukammal bilganligi, olti tilli lug'at yaratganligi, litografiya ochganligi, hatto o'z uyida maktab va kutubxona ochib, tolibi ilmlar o'qitilganligi kabi voqealar aynan romandagi Nusrat to'ra obrazining taqdirida aks etadi. Muallif jadidchilik harakati va g'oyalari yuqoridagi obrazlarga mahorat bilan singdiradi. Shuningdek, asarning kirish qismidan to yakunga qadar “O'tkan kunlar” dan ilhomlanib yondashilgan, biroq ayrim voqealar va syujet liniyalari farq qiladi. “O'tkan kunlar” muqaddima qismida “Tohir va Zuhra”, “Farhod va Shirin”, “Chor darvesh”, “Bahromgo'r” kabi xalq ijod namunalari keltirilsa, “Yaldo kechasi” da “Bobo Ravshan”, “Alpomish” kabi xalq dostonlari tilga olinadi. Hatto “O'tkan kunlar” romani ikkinchi bo'limida “Qovoq devonaning belbog'i” nomli fasl “Yaldo kechasi” da “Xudoning bir bandasi” fasli bilan mazmunan yaqin turadi. Qodiriy “O'tkan kunlar” ni o'sha davr

tilida, aynan o'sha davr kishilariga moslab yozgan ekan, “Yaldo kechasi” nima uchun muallif keltirgandek “ kitob yoki gazeta u yoqda tursin, hatto ijtimoiy tarmoqdagi bir-ikki jumlaning ham o'qishga toqati va hafsalasi yetmaydigan hozirgi besabr kishilar” ga o'tgan asr tiliga xos tarzda yozdi degan savol o'rtaga chiqadi. Umuman, muallif asarni ulug' ijodkor Qodiriy tilidan, uning nomidan kitobxonlarga taqdim etib asarni jozibali va qiziqarli etish yo'li sifatida qaraydi va “O'tkan kunlar” ning mantiqiy davomi sifatida xulosalaydi. Qodiriy asar xotimasida Yodgordan ikki o'g'il qolganligi va ular ikki xil oqimdaligi keltiriladi. Buni o'qib anglagan kitobxon kelgusida aka-ukaning ziddiyatlari va dunyoqarash, tushunchalaridagi to'qnashuvlarini tasavvur eta oladi. Biroq Xayriddin Sultonov mana shu kichik qismdan yirik roman yarata oldi. Uning badiiy mahorati ham aynan Qodiriy nafasi bilan jadidlarning hayoti, fidoiyligi va maqsadlarini mohirona tasvirlaydi, obrazlarini bir tizim asosida joylashtirib, yaxlit kompozitsiya yaratadi, xalq og'zaki ijodi namunalari va mumtoz adabiyot vakillarining asarlaridan keltirib asar badiiy-estetik qiymatini yanada oshiradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, muallifning badiiy niyati, asar g'oyasi hozirgi kun va kelgusi davrlar uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

### References:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent : G.G'ulom, 1996.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: A.Qodiriy, 2004.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
4. Xayriddin Sultonov. Yaldo kechasi. – Toshkent: Xaybar, 2025.
5. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
6. Ziyouz.com sayti